

LINGUISTICS OF TEXTBOOKS ANALYSIS

Babayeva Vasila Tashpulatovna
Senior Lecturer in Foreign Languages

O'QUV LUG'ATLARINING TILSHUNOSLIKDAGI TAHLILI

Babayeva Vasila Tashpulatovna
Tabiiy yo'nalishlarda chet tili kafedراسi katta o'qituvchisi

SUMMARY

A collection of textbooks and research in this area began in the 1960s, it is clear that so far they have made great strides. The creation of German dictionaries began in the 1980s and played an important role in the teaching of the German language.

Keywords: Linguistics, dictionary creation, academic dictionary, development, technology, pedagogy, research, lexicography, grammatical term, glossary, word and phrase, content and form.

ANNATASIYA

O'quv lug'atlarini tuzish, mazkur soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish 1960 yildan boshlangan bo'lsa, hozirgacha katta yutuqlarni qo'lga kiritilgani ayon bo'ladi. O'tgan asrning 80-yillaridayoq nemischa-o'zbekcha o'quv lug'atlari yaratish ishlari boshlangan bo'lib, bu lug'atlar nemis tilini o'qitish ishlarida katta xizmat qildi.

KALIN SO'Z: Tilshunoslik, lug'at yaratish, o'quv lug'at, taraqqiyot, texnologiya, pedagog, ilmiy tadqiqot, leksikografiya, grammatik termin, izohli lug'at, so'z va ibora, mazmun va shakl.

ANNATATSIYA

Sostavleniye uchebnikov i issledovaniya v etoy oblasti nachalos v 1960-tich godach, to yasno, chto do sich por bili dostignuti bol'shiye uspechi. Sozdaniye nemetsko-uzbeksko slovarey nachalos v 1980-kh godakh i sygralo vajnyuyu rol v obuchenii nemetskomu yaziku.

KLUCHEVIYE SLOVO: Lingvistika, sozdaniye slovary, akademicheskii slovar, razrabotka, texnologiya, pedagogika, issledovaniye, leksikografiya, grammaticheskii termin, glossariy, slovo i slovosochetaniye, soderjaniye i forma.

INTRODUCTION

Jahon ilm-fani taraqqiyotidan xabardor bo'lish va tajriba almashib turish chet tillarni o'qitishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish juda muhimdir. Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining ta'lim sohasiga kirib kelishi tarbiyachi va pedagoglarga ta'lim mazmunining barcha bo'g'inlari va bosqichlari, ularning maqsadi, mazmuni, shakli va usullarini takomillashtirish imkonini berdi.

Jahon leksikografiyasi tarixiga e'tibor berilsa, o'quv lug'atlarini tuzish, mazkur soha bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish 1960 yildan boshlangan bo'lsa, hozirgacha katta yutuqlarni qo'lga kiritilgani ayon bo'ladi. P.N.Denisov, L.A.Novikov, N.A.Baskakov, N.K.Suxanov, V.V.Morskov

singari leksikograf olimlarning o'quv lug'atlari bo'yicha qilgan ishlari ibratlidir. L.V.Shcherba, X.Kasori, A.M.Babkin, V.A.Berkov, A.P.Stupin, S.G.Barxudarov, V.V.Vinogradov, Y.N.Karaulov, D.B.Buranov, A.M.Bushiy, M.I.Umarxo'jayev, X.M.To'xtaxo'jayeva va boshqalarning tadqiqotlari ham e'tiborga molikdir.

Qo'yida ko'p tilli o'quv lug'atchiligi xususida fikr yuritimiz. O'tgan asrning 80-yillaridayoq nemischa-o'zbekcha o'quv lug'atlari yaratish ishlari boshlangan bo'lib, bu lug'atlar nemis tilini o'qitish ishlarida katta xizmat qildi. «Nemischa-o'zbekcha lug'at», «Nemischa–o'zbekcha o'quv lug'at» va boshqalar. Bu lug'atlarda 15000 dan 25000 gacha so'z va birikmalar kiritilgan bo'lib, ularda keyingi yillar ichida o'zbek adabiyotida mavjud bo'lgan va maktab o'quvchilarining o'qish amaliyotida foydalanish uchun kerakli til birliklari o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari «Nemischa –o'zbekcha grammatik atamalar izohli lug'ati» yaratilib, chop ettirildi. Grammatik izohli lug'at respublikamizdagi oliy ta'lim va o'rta maktab nemis tili o'qituvchi va talabalariga, keng o'quvchilar ommasiga, tilshunoslar, tarjimonlarga mo'ljallangan bo'lib 800 ga yaqin grammatik terminlar ikki tilda izohlanadi. Lug'atga nemis tili nazariy va amaliy grammatikasida keng qo'llanadigan terminlar kiritilgan. Undan tashqari lug'atda nemis tili tarixi, roman–german filologiyasi, qiyosiy tipologiya, umumiy tilshunoslik fanlariga oid va nemis tili grammatikasiga aloqasi bo'lgan umumiy terminlar ham kiritilgan. Lug'atda grammatik terminlarning oldin nemischa shakli hamda ularning muqobil variantlari va ta'riflari qisqa izohlanib so'ng ularning o'zbekcha tarjimasini keltirilgan. Grammatik terminlarning rodlari der-m, das-n, die-f belgilari orqali ko'rsatilib, ular shu termini m–mujskoy rod, n-sredniy rod, f–jenskiy rodga mansubligini anglatadi. Bu belgilar otdan oldin qo'shib o'qiladi: der Ablaut, das Adverb, die Kopula.

1994 yilda uch tilli «Nemischa–ruscha-o'zbekcha lug'at» hamda «Nemischa –ruscha - o'zbekcha frazeologik lug'at» lar chop etildi.

«Nemischa –o'zbekcha o'quv lug'at» har ikkala tilga doir bo'lgan 16 ming so'z va iboralarni o'z ichiga olgan. Lug'atga kiritilgan so'z va iboralarning 60 % maktab va oliy o'quv yurti hayoti o'qish, o'qitish ulardagi ijtimoiy tashkilotlar, maktab va oliy o'quv yurti islohotlari va ulardan kelib chiqadigan talab hamda vazifalar, sport, yoshlar harakatlari ishlari va boshqa shunga o'xshash masalalar bilan bog'liq. O'quvchilarga oson bo'lishi uchun so'zlarning 90 % ga yaqini misollar bilan berilgan, ammo bu holatda ham «Nemischa–o'zbekcha lug'at»ga" tayanilgan, misollar o'zgartirilmagan. Misolsiz, faqat tarjimasini berilgan so'zlar esa o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Kitobxonning o'zi bemalol ular yordamida misollar tuzishi mumkin. Lug'atning hajm jihatdan chegaralanganligidan, so'zlarning ko'chma ma'noda qo'llanishi deyarli berilmagan. Ammo ijobiy tomoni deb shuni aytish mumkinki, nemischa-o'zbekcha so'z va iboralarning muqobil ekvivalentlarini tanlab olishga alohida e'tibor berilgan. Ba'zi bir so'zlarning ma'nosini kengroq ochib berish maqsadida har ikkala tilda ham ularning bir necha variantlari berilgan.

«Nemischa –o'zbekcha lug'at» keng ko'lamli bo'lib, u «Nemischa –o'zbekcha o'quv lug'at»iga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Uning matn chegara strukturasi aynan quyida aytiladigan elementlarni o'z ichiga oladi.

Otlar almashinadigan joy va so'nggi joy.

Almashtiriladigan otlar bevosita quyidagi tekst konstruksiyasidan iborat.

- Sarlavha joy

- Orqaga qaytish sahifa
 - muqaddima
 - foydalanish ko'rsatmalari
 - kirill alfavitining talaffuzi uchun jadval
- So'nggi qator bevosita quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Alfavit tarzida «Geografik nomlar».
- Kuchli va noto'g'ri tuslanadigan fe'llar jadvali.
- Foydalanilgan lug'at kitoblar ro'yxati.

Alfavit tarzida so'zlar chap tomondan qo'yilgan. Birinchi so'z tipografiya belgisi « ~ » bilan bog'lanadi. Bu misol tarzida poyma-poy berilgan.

Preis m 1. narx, navo 2. mukofot, sovrin

~bestimmung f baholash, narx qo'yish

~erhöhung f narxning ko'tarilishi

~ermäßigung f narxning pasayishi

~kontrolle f narxni nazorat qilish

Preispolitik f narx – navo siyosati

Preistreiber m olib sotar, chayqovchi

Bu yerda qo'yiladigan savol shundayki: Nima uchun «Preispolitik» va «Preistreiber» so'zlari yarim so'z ~ politik va ~ treiber shaklida emas to'la so'z sifatida berilyapti. So'zlarni qo'shishda tez-tez xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Solishtirib ko'ramiz.

Pflaume f bot. olxo'ri

~ baum m olxo'ri daraxti

~kern m olxo'ri danagi

~kompott n olxo'ri kompoti [1:144]

Uchala so'z qo'shilishida ham masalan: ~ n baum tushib qolgan.

Xuddi shunday xatolar «Nemischa –o'zbekcha o'quv lug'ati» da [2:206] ko'rish mumkin. «Nemischa –o'zbekcha lug'at»da hozirgi zamon nemis tili leksik birliklariga 7 % (hattoki undan ham yuqoriroq 10%) e'tibor qaratilgan. Barcha otlarda turlanish belgisi yoki turlanish namuna belgisi ko'rsatib beruvchi vosita sifatidagi belgilar tushib qolgan. O'zbek tilida birlik va ko'plik uchun faqat bitta turlanish sistemasi bo'lgani nemis tilini o'rganayotgan talabaga otlarning turlanishi qiyinchilik olib keladi. Yana shuni aytib o'tish joizki, ushbu lug'atda fe'llarning qabul qilingan (kuchli va kuchsiz) morfologik klassifikatsiyasi emas, balki sintaktik klassifikatsiyasi ko'pgina fe'llarda (o'timli va o'timsizlik belgilari) tushib qolgan.

Ijobiy tomondan qayd etilganda ushbu «Nemischa –o'zbekcha lug'at»da predloglar va ularning boshqaruvi ketma-ket joylashtirilganligi «Nemischa –o'zbekcha o'quv lug'ati»ga qaraganda nisbatan to'g'ri berilgan. Ammo frazeologizmlar kam berilgan, misollar aralashtirib yuborilgan va tahlil etilmagan hamda ko'rsatilmagan.

Ma'lumki, O'zbekiston nemis tilini chet tili sifatida o'rganadigan mamlakatlar orasida yetakchi o'rinni egallaydi. Nemis tilini o'rganadiganlar soni jihatdan O'zbekiston Rossiya, Ukraina, Polshadan keyin to'rtinchi o'rinni egallaydi. Lug'atshunoslik sohasida esa, tan olish lozimki, maqtovgga sazavor yutuqlarga erishilmagan. O'zbek germanistikasida esa bir qator o'z yechimini kutayotgan muammolar yig'ilib qolgan. Afsuski, hozir ham izlanishlar kam. Bizning nazarimizda 50 ming va undan ortiq so'zni o'zida jamlagan «Nemischa - o'zbekcha lug'at»,

«O‘zbekcha – nemischa lug‘at» yaratish vaqti keldi. Bundan tashqari har ikki tilga oid turli soha lug‘atlari, atamashunoslik lug‘atlari va elektron lug‘atlar yaratish davr talabiga aylangan. Buning uchun salohiyatli mutaxassislar ham, iqtidorli yoshlar ham, imkoniyatlar ham yetarli. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish va zamonaviy lug‘atlar yaratishga hissa qo‘shish barchamizning vazifamizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Benyaminov Y.R., Mirsoatov T.Z., Saidov S.S., Rustambekova M. R. «Nemischa – o‘zbekcha lug‘at», - T.: O‘qituvchi, 1985. - 248 b.
2. Benyaminov Y.R., Saidov S.S., «Nemischa–o‘zbekcha o‘quv lug‘at», - T.: O‘qituvchi, 1991. - 396 b.
3. Mirsoatov T.Z., Sattorov .M. «Nemischa –o‘zbekcha grammatik atamalar izohli lug‘ati», - T.: O‘qituvchi, 1992 – 150 b.
4. Tashpulatovich, B. M. . (2021). Using Multimedia Technologies in Teaching Foreign Languages. Middle European Scientific Bulletin, 12, 64-67.
5. Babayev Makhmud Tashpulatovich, Babayeva Vasila Tashpulatovna. USE of Proverbs, sayings and Expressions in teaching German. International Engineering Journal for Research&Development Vol.6. 2021. 52-56.
6. BV Tashpulatovna, MM Halimovna, BM Tashpulatovich -Chet Tili O ‘Pgatishda O ‘Yin-Mashqlarning Roli " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM, 2021. 139-144
7. VT BABAYEVA, MT BABAYEV, S Sobirovna RAJABOVA STUDYING A FOREIGN LANGUAGE E-Conference Globe, 7-13
8. Rashidova D., Hasanchanova.S., T.A. Yurkova «Nemischa–ruscha- o‘zbekcha lug‘at», - T.: «Qomuslar bosh tahririyati», 1994 -284 b.
9. Umarxo‘jayev M. Nazarov. Q. «Nemischa –ruscha - o‘zbekcha frazeologik lug‘at» - T.: O‘qituvchi ,1994 -356 b.